

SURXONDARYO VILOYATIDA ODAM DNKSI SUD BIOLOGIK EKSPERTIZASI YO'LGA QO'YILDI

Abdimurotov Boyburi Panjiyevich

Adliya vazirligi huzuridagi

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud
ekspertiza markazi Surxondaryo bo'limi Odam
DNKsi sud biologik ekspertiza laboratoriyasi
eksperti.

Boyburi6827@gmail.com +998932226827.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida odam DNKsi asosida sud biologik ekspertizasining yo'lga qo'yilishi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda sud-tergov amaliyotidagi ahamiyati yoritilgan. DNK tahlilining ilmiy imkoniyatlari orqali shaxsni identifikatsiya qilish, qarindoshlik munosabatlarini aniqlash, jinoyat ishlarida biologik dalillarni ishonchli baholash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududiy darajada DNK ekspertizasining joriy etilishi sud ekspertizasi sifatini oshirish, tergov jarayonlarini tezkor va aniq olib borish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: odam DNKsi sud biologik ekspertizasi hal etadigan masalalar, DNK tahlili, shaxsni identifikatsiya qilish, kriminalistika, sud ekspertizasi, biologik dalillar, Surxondaryo viloyati.

Nisbatan yaqinda - taxminan bir asr oldin - jinoyat sodir bo'lgan joylarda juda ko'p foydali ma'lumotlar yashiringanligi ma'lum bo'ldi, ularni ilm-fan yordamida talqin qilish va sudga taqdim etish mumkin. Faqat 18-19-asrlarda shakllangan to'g'ri jinoiy tergov g'oyasi keng tarqalgach, tergovchilar o'zlarining farazlarini tasdiqlovchi dalillarni qidira boshladilar. Sud ekspertizasi va tergovda laboratoriya tekshiruvlaridan foydalanish sud jarayonini tubdan o'zgartirdi va sudda genetik tekshiruv natijalarining

paydo bo'lishi jinoyatchining aybini inkor etib bo'lmaydigan dalillarni topish imkonini berdi. Biroq, aslida, hamma narsa biroz murakkabroq.

Hozirgi kunda, ehtimol, hamma DNK testi haqida eshitgan. Ko'pgina tok-shoular ushbu protseduradan biron bir voqeani rad etish yoki isbotlash uchun foydalanadi. Ko'pincha, bu qarindoshlikni aniqlashdir, ammo DNKni tekshirish imkoniyatlari ancha kengroqdir.

DNK tahlili fan va texnologiyaning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. So'nggi yillarda genetik muhandislik va DNK ketma-ketligi sohasidagi yutuqlar DNK tahlilining imkoniyatlari va uning turli sohalarda qo'llanilishining sezilarli darajada kengayishiga olib keldi.

DNK tahlili ko'pincha biologik materiallardan ma'lumot olish uchun jinoiy tergovga yordam berish, tabiiy ofat qurbonlarini aniqlash va bedarak yo'qolganlarni tekshirish uchun ishlatiladi. Sud-tibbiy tekshiruvlar uchun DNK profilining ahamiyati oshgani sayin, bu ma'lumotni kichikroq hajmdagi DNKdan olish istagi ham ortadi. Izlangan DNK namunalari tahlilning istalgan bosqichida, namunani aniqlashdan profilni talqin qilishgacha bo'lgan tavsiya etilgan chegaralardan past bo'lgan har qanday namuna sifatida aniqlanishi mumkin va uni aniq pikogramma miqdori bilan aniqlab bo'lmaydi. Bu yerda biz DNK iz namunalarini to'plash, ekstraktsiya qilish, kuchaytirish, profillash va talqin qilish bilan bog'liq jihatlarni ko'rib chiqamiz. Kontaminatsiya va o'tkazish masalalari DNK izlarini tahlil qilish kontekstida ham qisqacha muhokama qilinadi. So'nggi yillarda bir nechta uslubiy o'zgarishlar iz namunalarini profillashni osonlashtirgan bo'lsa-da, yanada takomillashtirish uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjudligi aniq.

DNK izlarini tahlil qilish sud-laboratoriya ishlarining ajralmas qismi va tergovchilar uchun asosiy vositaga aylandi. Shunga ko'ra, iz DNKning xususiyatlarini va uni to'plash, kuchaytirish va talqin qilishni yaxshilashning eng yaxshi usullarini tushunish uchun katta tadqiqotlar olib borildi. Ushbu sharhning maqsadi DNK izlarini o'rganishning qisqacha tarixini taqdim etish va sud biologiyasida uchraydigan kichik

namunalarni to'plash, kuchaytirish va izohlash uchun ishlatiladigan ba'zi usullarni umumlashtirishdir.

Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda sud va tergov organlari tomonidan tayinlangan ekspert xulosalarini berishda sud-tibbiyot ekspertlarining o'rni g'oyat muhim.

Barchamizga ma'lum so'ngi yillarda ko'plab sohalarida islohotlar, o'zgarishlar, rivojlanishlar kuzatilmoqda. Misol uchun tibbiyot sohasi, ta'lim sohasi, kompyuter-texnologiyalar sohasi va boshqa sohalarida ham. Bularning barchasi albatta, aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Barcha sohalar kabi sud-ekspertiza sohasida ham ko'plab o'zgarishlar, rivojlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyul kunidagi **“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD-EKSPERTLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”**gi 6256-sonli farmoni qabul qilinib, ushbu farmonda 2021-2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiya va uni amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritasi tasdiqlandi. Shuningdek, 10.01.2022 yilda Vazirlar Mahkamasining 11-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bo'yicha Surxondaryo viloyatida Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi ochilishi 2025-yilga belgilangan edi va ushbu reja amalga oshirildi. X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertiza markazining Surxondaryo viloyat bo'limi avvalgi ekspertiza turlari bilan birgalikda qo'shimcha yana 2 ta ekspertiza turi ya'ni Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi hamda materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyalari bilan o'zining yangi binosida rasmiy ochilishi o'tkazildi.

Ushbu kunga qadar Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi Toshkent shahrida, Samarqand, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida mavjud edi. Sud, tergov organlari tomonidan odam DNKsi sud biologik ekspertizasi yuzasidan ekspertizalar faqat Toshkent shahar, Samarqand, Xorazm va Farg'ona viloyatlaridagi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyalariga tayinlanar edi. Bugungi kunda Respublikamiz hududida bunday laboratoriyalar soni 5 taga yetdi. Surxondaryo viloyatida ochilgan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasida ham odam

biologik materiallari ustida har tomonlama va to'liq tadqiqotlar o'tkazilib, tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda mutaxassislar tomonidan xolisona xulosalar berilib kelinmoqda.

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi:

- noma'lum jasad qoldiqlarini identifikatsiya qilish;
- qon, sperma, so'lak, soch, to'qimalar, organlar, tana bo'laklari va boshqalarni ma'lum bir shaxsga tegishlilikini aniqlash;
- qon, sperma, so'lak, soch, to'qimalar, organlar, tana bo'laklari va boshqalarni bir yoki bir necha shaxsga tegishlilikini aniqlash;
- bolaning biologik ota-onasini aniqlash;
- ota yoki ona nasli bo'yicha yaqin yoki uzoq qarindoshlikni aniqlash;
- biologik egizaklarni aniqlash (monozigota yoki dizigota egizaklar);
- biologik izlarni jins mansubligini aniqlash;
- odam DNKsi genotipini aniqlash va "DNK ma'lumotlar bazasini" shakllash (jinoyatlarni tergov qilishda shu genotiplardan keyingi identifikatsiya qilish maqsadida foydalanish uchun);
- taqdim qilingan biologik materiallar genotiplarini "DNK ma'lumotlar bazasi"da mavjud genotiplar bilan solishtirish yo'li orqali identifikatsion va diagnostik masalalarini xal etish;
- taqdim qilingan biologik materiallar gaplotiplarini "DNK ma'lumotlar bazasi"da mavjud gaplotiplar bilan solishtirish yo'li orqali ota avlod bo'yicha diagnostik masalalarini xal etish kabi masalalarni hal qiladi.

Yuqorida keltirilgan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi hal etadigan masalalar yuzasidan sud va tergov organlaridan tashqari fuqarolar o'zlari ham xohishi va ehtiyojiga ko'ra ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshirgan holda ekspertizalar tayinlashlari mumkin. Fuqarolarning murojaatlari bo'yicha **"MUTAXASSIS FIKRI"** va **"ANONIM MUROJAAT"** kabi xizmat turlari mavjud. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz kerakki, ushbu xizmat turlarining tadqiqotlari xuddi sud yoki tergov organlari tomonidan tayinlangan ekspertiza tadqiqotlari kabi o'tkaziladi va natijalari

olinadi. Ya'ni ushbu xizmat turlari tadqiqotlarining xolisinaligi, har tomonlamaligi va tadqiqotlarning to'liqligi ekspertiza bilan bir xil.

Xulosa

Surxondaryo viloyatida odam DNKsi asosida sud biologik ekspertizasining yo'lga qo'yilishi huquqni muhofaza qilish va sud-amaliy faoliyatida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur yo'nalishning joriy etilishi jinoyatlarni fosh etishda, shaxsni aniq identifikatsiya qilishda, qarindoshlik aloqalarini belgilashda hamda sud qarorlarining ilmiy asoslangan va adolatli bo'lishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. DNK tahlilining yuqori aniqligi va ishonchliligi sud biologik ekspertiza sifatini yangi bosqichga olib chiqib, tergov va sud jarayonlarida xatoliklar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, mazkur imkoniyatning hududiy darajada yo'lga qo'yilishi vaqt va moliyaviy resurslarni tejashga, fuqarolarning huquq va manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida DNK ekspertizasining joriy etilishi sud ekspertizasi tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilogan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Sud ekspertizasi muassasalari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi qarori, 2020.
4. Respublika sud ekspertiza markazi materiallari, 2023–2024-yillar.
5. Генетика и криминалистика. URL: <http://unnatural.ru/>
6. Дымышиц Г. М. Сюрпризы митохондриального геном // Природа. 2002. № 6
7. Butler, J.M. (2015). Advanced Topics in Forensic DNA Typing: Interpretation. Academic Press.

8. Jobling, M.A., Gill, P. (2004). Encoded evidence: DNA in forensic analysis. *Nature Reviews Genetics*, 5(10), 739–751.
9. Tarasenko, R.A. va boshqalar. (2021). Digital Forensics in Forensic Biology. *Journal of Forensic Science & Criminology*, 9(2), 1–8.